

ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA SHOIR SHAXSIYATINING BADIY TALQINI

*G.K.Raximova¹
Y.Bahriiddinova²* *1.2.O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston*

Annotatsiya: Ijodkor ruhiy olamining mevasi bo'lgan badiiy asar tarkibida, qaysidir ma'noda, uning shaxsi ham ishtirok etadi. Chunki, ijodkor hayotdan olgan taassurotlari, voqelikka bo'lgan munosabati, o'z dardi-hasrati, orzu armoni, umidistagi va muhabbatini badiiy asarlari orqali ifodalaydi. Shuning uchun ham har bir ijodkor shaxsini o'rganishda badiiy asarning qimmati kattadir. Maqolada buyuk shoir Alisher Navoiy hazratlarining hayoti, ijtimoiy-siyosiy faoliyati ifodalangan she'rlari namunalari badiiy jihatdan tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *ijodkor shaxsi, ruhiy olami, davr, zamon, tarixiy sharoit, ijtimoiy muhit, she'riyat, poetika.*

**Raximova
Gulbaxor,**
*Boshlang'ich ta'limgazariyasi kafedrasidotsenti,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,
Samarqand,
O'zbekiston
gulbahorrahimova1
7@gmail.com*

**Bahriiddinova
Yulduz,**
*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institutitalabasi,
Samarqand,
O'zbekiston
bahriiddinova
yulduz@gmail.com*

Аннотация: В структуре художественного произведения, являющегося плодом духовного мира Творца, в некотором роде задействована и его личность. Потому что через свои художественные произведения художник выражает свои впечатления от жизни, свое отношение к действительности, свою боль, мечту, надежду и любовь. Вот почему ценность произведения искусства в изучении личности каждого создателя высока. В статье художественно исследованы образцы стихов великого поэта Алишера Навои, в которых выражена его жизнь, общественно-политическая деятельность.

Ключевые слова: *личность творца, духовный мир, эпоха, время, исторические условия, социальная среда, поэзия, поэтика.*

Abstract: In the composition of an artistic work, which is the fruit of the creator's spiritual world, in some way, his personality is also involved. Because, the creative personifies his impressions from life, his attitude to reality, his pain, his armory of dreams, his hope and his love through his artistic works. That is why the value of a work of art is great when studying the personality of each creator. The article artistically explores the life of the great poet Alisher Navoi's Highness, examples of poems in which socio-political activity is expressed.

Key words: *creative personality, spiritual world, ERA, time, historical context, social environment, poetry, poetics.*

Har bir buyuk shoir avvalo o'zini dunyoga keltirgan ona zaminining va ana shu ona zamin uzra hukmron bo'lgan ma'lum bir tarixiy sharoitning, ma'lum davr va zamonning farzandidir. Shuning uchun ham shoirning shaxs sifatida shakllanib kamolotga erishuviga u yashagan zaminu zamonning ta'siri benihoya katta. Avvalo, shoirning taqdirlari va hayot yo'li u yashagan davrining ijtimoiy muhiti va sotsial masalalari bilan tayin etiladi. Shu boisdan ham shoir tarixiy davr, uning ijtimoiy muhiti, muammo va ziddiyatlari bilan birga yashaydi. Uning boy badiiy ijodi ham o'sha tarixiy sharoit va davr hayoti bilan ma'lum ma'noda bog'liq bo'ladi. Shu sababdan ham Navoiy shaxsini va hayotini to'la tushunish uchun uning o'z davriga munosabatini ifodalovchi lirik merosini o'rganish lozimdir. Binobarin, Navoiy she'riyatining muhim fazilatlaridan biri ham unda bevosita shoirning o'z zamonasiga doir qayd va ishoralarini real aks ettirilganligidir. Butun insoniyatga Alisher Navoiydek ulug' shoirni etkazib bergan zamon (XV asrning ikkinchi yarmi)da butun Movarounnahr va Xuroson mamlakatida temuriylar sulolasi hukmronlik qilar edi. Alisher Navoiyning butun umri va bosib o'tgan hayot yo'li temuriylar hukmronligi davri bilan bog'liq. Shu boisdan buyuk shoirning hayot yo'lini to'rt temuriyorda

podshohlar hukmronligi davriga bo‘lib, uning otashin she’riyatini o‘sha davr va zamonning sotsial-ijtimoiy hodisalariga bog‘lab o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Alisher Navoiy turk nazmi “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining “Favoyid ul-kibar” devoniga kirgan mazkur g‘azali aftidan, shoirning Husayin Boyqaro hukmronligi davridagi vazirlik lavozimida ishlagan hayoti sahfalarini aks ettiradi. Chunki unda atrofidagi uning iste’dodiga hasad bilan qaraydigan munofiq, pastkash kimsalarning shoir shaxsiga nisbatan yaramas qiliqlari, makr-hiyllalari va dushmanliklaridan ozurda bo‘lgan qalbning o‘tli fig‘oni ifodalangan. G‘azal bunday qabih kuchlarning fitna-fasodlari, hiyla-nayranglari tufayli yaqin do‘stining o‘ziga nisbatan mehsizlidan iztirobga tushgan dil dardini tasvirlash bilan boshlanadi:

Ey ko‘ngil, dushmanlar oncha makr ila fan qildilar.

Kim, vafolig‘ do‘stni jonimg‘a dushman qildilar[1.505].

Xo‘sh, vafolig‘ do‘st deb Navoiy kimni nazarda tutmoqda? To‘g‘ri, hazrat Alisher Navoiyning hayotda u kishini hurmat qiladigan, e’tirof etadigan yaqinlari, do‘stlari juda ko‘p bo‘lgan. Ammo baytga chuqurroq razm solib mulohaza yuritadigan bo‘lsak, gap Alisher Navoiy bilan Husayn Boyqaro o‘rtasidagi munoabatlar haqida borayotganligi seziladi. G‘azalni shoirning “Navodir un-nihoya” devoni tarkibida borligini va bu devonning 1480-1487 yillarda tuzilganligini hisobga olsak, yuqoridagi fikrimiz asosli bo‘ladi. Endi mana shu yillarning g‘alayonli voqealarini eslaylik. Navoiyshunos olim A.Hayitmetovning tadqiqotlarida yozilishicha bu vaqtarda “Shohga ichki harajatlar uchun ikki tuman pul kerak bo‘lb qoladi. Shunda Navoiyning muxoliflaridan Muhammad Majdiddin shohga tilyog‘lamalik qilib, agar u Navoiyning o‘rnida bo‘lsa, unga bundan ham ko‘proq pulni topib berishi mumkinligini aytadi. Husayn Boyqaro uning gapiga kirib, Navoiyni saroydan uzoqlashtirib, Astrobod viloyatiga hokim qilib jo‘natadi”. G‘azalda ifodalangan butun bir yaxlit fikr, nazarimizda, bo‘lib o‘tgan ana shu voqealar tafsilotini o‘zida jamlab, shoirning bu vaqtardagi ruhiy kechinmalarini aks ettiradi:

Dud boshimdan chiqar, go‘yoki hijron toshidin,

Yog‘durub har yon, bu gunbad uzra ravzan qildilar.

Shoir atrofidagi teskari kuchlarning o‘z boshiga otgan malomat toshlari zarbidan “hijron”, ya’ni ayriliq azobini chekayotganligini tasvirlaydi. Ularning bunday qabihliklarini boshida aylanib diliqa zahar-zahmat nishlarini sanchuvchi zog‘larning hujumiga qiyos qiladi. Go‘yo shoirning boshida yoyilgan soch emas, uning o‘rnida hujumga yopirilgan “zog” – qarg‘alar to‘dasi. Ular o‘z hujumlari zahridan jarohatlangan, yara bo‘lgan shoir tanidan uning joniga qasd qilmoq uchun o‘zlariga in yasab joylashib olganlar:

Boshima jo‘lida soch ermaksi, zog‘ aylab g‘ulu,

Zaxmlardin to‘ma istarga no‘iman qildilar.

Yoru-diyoridan ayriliqda o‘tkazgan damlarini hayotidagi qarong‘ulik deb bilgan shoir nazdida butun “gardun” – falak ham qora libosga burkangan. “Subh” – tong ham o‘z yoqasini chok-chok qilib yirtib shoirning bu ahvoliga, nola-yu zoriga qayg‘urmoqda:

Hajri shomidin osib gardun qora kiz bo‘ynig‘a,

Subh chok aylab yaqo holimg‘a shevan qildilar.

Keyingi bayt mazmunidan bir qarashda go‘yo Navoiyning qalbida o‘zi tug‘ilib o‘sgan vataniga bo‘lgan ishq-muhabbat o‘ti bir shamdek so‘nib borayotgan edi. Dardu shavq, ya’ni unga intilish dardi shoirning butun tanini kuydirib, ul tuproq yodi bilan ko‘nglini yoritdi, deyishimiz mumkin. Biroq unda buyuk san’atkor ko‘zlagan niyatni to‘la tushinishimiz va qalban his etishimiz qiyin bo‘ladi. Zotan, Alisher Navoiyning o‘zi tug‘ilib o‘sgan tuproqqa bo‘lgan mehr-muhabbati tunganmas, vatan tushunchasi

esa uning uchun juda yuksak va muqaddasdir. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo‘sak, baytdagi “ishq o‘ti” ham “dardu shavq” kabi orzu istak va intilish ma’nolarida aks etganligini ko‘ramiz. Demak, o‘z atrofidagi teskari kuchlarning qabihliklari tufayli ona yurtidan uzoqda bo‘lgan shoir qalbida unga etishish yo‘lidagi so‘nib borayotgan orzu-umidi ul tuproq yodi bilan yanada ravshanlashgan. Va ul tuproqqa bo‘lgan qattiq intilish dardi shoirning butun tanini kuydirgan:

O‘chmish erdi ishq o‘ti, hasdek tanimni dardu shavq,
Kuydirib, go‘yo bu tuproq birla ravshan qildilar.

Garchand, g‘azal “sharhi holat” tasvirini ifodalashdan iborat bo‘lsada, so‘nggi baytlarda shoirning hayotiy mushohadalari, falak va davr haqidagi umumiy, faylasufona fikrlari bilan yanada uyg‘unlashadi. Navoiyning ta’rificha qadimgi Eron shohi Jamshid hakimlarga buyurib ikkita jom yasattirgan ekan. Shu jomlardan birining nomi “jomi gitynamoy” – dunyodagi hodisalarini ko‘rsatuvchi jom deb atalar ekan. Shu jomdan may ichgan paytda dunyoda yuz bergan voqeа-hodisotlar unda ko‘rinib turar ekan. Shoир ana shu jomdan may ichgan “ahli hikmat” – donishmandlar charxning bemehr, dunyoning beshafqat va zolim ekanligini “mubarhan qildilar” – ya’ni aniq ko‘ra bildilar, deydi:

Boda tutkim, ahli hikmat charx bemehr erkanin,
Jom davri xatlari birla mubarhan qildilar.

“Ka’ba” – musulmonlarning Makka shahridagi ziyoratgoh joyi. Bu joyni ziyorat qilgan kishi butun qilgan gunohlaridan forig‘ bo‘ladi. “Dayr” – butxona, tasavvuf ilmida tangrining uyi. Dunyoning bor tashvishu g‘amini unittiradigan tinch joy. Shuning uchun ham jahon ahli bu ikki manzilni gunohu g‘amdan xalos qiladigan omonlik joyi deb biladi. G‘azal shoirning o‘z-o‘ziga “Ey Navoiy, sen ham Ka’baga otlan yoki butxonaga kir, shundagina dunyoning g‘amu kulfatlaridan forig‘ bo‘lasan”, degan donishmandona murojaati bilan nihoyasiga etadi:

Ey Navoiy, Ka’ba tut yo dayrkim, ahli jahon,
Jurmу g‘amdin bu ikki manzilni ma’man qildilar.

Alisher Navoiyning saroyda, rasmiy xizmatda o‘tgan mashaqqatli hayoti davlat manfaatini ko‘zlovchi xalqparvar shoir bilan nafsi buzuq saroy amaldorlari o‘rtasidagi ma’naviy ziddiyatlarga qarama-qarshi kelishmovchiliklarga to‘la edi. Ular Navoiya zohiran do‘sit bo‘lib ko‘rinsalarda, aslida “qasdиг“a” “yuz nish” urushga tayyor turgan munofiq, dushman edilar. Hiyla-nayrang va ichki ziddiyatlarga to‘la saroy vaziyatida xalbaki “do‘srlarning” riyokorligidan qiynalgan, azob chekkan shoirning o‘kinchli fig‘oni mana bu qit’ada o‘z aksini topgan:

Nihoniy igna sanchar yorlardin
Aduvvash novakafganlar ko‘p ortuq.
Munofiqsheva zolim do‘srlardin
Muxoliftab’ dushmanlar ko‘p ortuq[2.524].

Shuning uchun ham fitna-fasod, zo‘ravonlik va adolatsizlik avj olgan saroy muhitida siqilgan shoir vazirlik lavozimidan ketishni ixtiyor etadi. Abdurahmon Jomiya bag‘ishlab yozgan “Xamsat ul-muttahayyirin” asarida saroy xizmatidan chetlanish niyatida bo‘lganligini va bu masalada Jomiya maslahat uchun murojaat etganligini yozadi. Bunday qarorga kelishiga asosiy sabab qilib, saroy ahli ayonlari va ularning kirdikorlarini ko‘rsatadi. Yuqoridaq qit’da shoirda ana shunday kayfiyatning tug‘ilish sabablarini ochib beradi. Alisher Navoiyning saroydagи hayoti va faoliyatini keng hamda chuqur tasavvur etishimizga yordam beradi. Quyidagi qit’ada esa, hazrat Navoiy vazirlik lavozimidan ketishining butun bir tafsilotini sabablari bilan bayon qiladi:

Qo‘yub amoratu beboklik bihamdillah,
Ki, faqr ko‘yi nasib etti kirdikor manga,

Eshiqda tark etibon ixtiyoru mulkda ham
 Bu nav' martaba lutf etti shahriyor manga.
 Gar ixtiyor ila qo'ydum o'z ixtiyorimni
 Valek yo'q edi ham munda ixtiyor manga[3.69-70].

Avvalo shoir "amorat"-amirlilik mansabini qo'yib (kechib), "faqirlik" nasib etgani uchun ollohgashukronalar aytadi. Keyingi baytda bu "martaba"ni "shahriyor" (Husayn Bayqaro)ning "lutf"-marhamati tufayli beixtiyor qabul qilganligini, endi esa beixtiyor ravishda iste'fo berayotganligini yozadi. Uchinchi baytning birinchi misrasidagi "ixtiyormi" so'zi bu o'rinda amal, muxtor, huquq ma'nolarida kelgan. Ikkinchi misradagi "ixtiyori" so'zida shu ma'no va ayni paytda xohish, istak mazmuni ham bor. "Baytdagi ana shu so'z o'yini ochilsa"[9] Navoiyning saroy xizmatidan ketishi majburiy- "ixtiyori" ravishda yuz berganligi ayon bo'ladi. Bu majburiylikning boisi esa yuqoridagi sabablar bilan bir qatorda "amal" va "mansab", to'g'rirog'i, mana shu amalparastlik va mansabparastlik atrofidagi janjal, to'polon, ko'rolmaslik, hasad va ig'vo. Shuning uchun ham shoirning ushbu baytlaridagi o'z-o'ziga murojaat va talabi "amal xirmoniga" o't qo'yish, mansabsizlikni ixtiyor etishdir:

Amal qasrini aylama anda ixdos
 Ki, har lahza bo'lg'ay o'kush fitna hodis,
 Navoiy, amal xirmani ichra o't sol
 Ki, bo'lmoq kerakmas bu mazra'da horis[4.514].

Alisher Navoiy vazirlik lavozimidan rasman ketgan bo'lsada, saroyda Husayn Boyqaroning eng yaqin kishisi sifatida mamlakatni obodonlashtirish, madaniyat va ilmu fanni rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Ayniqsa, qurilish sohasida juda ko'plab ishlarni amalga oshirdiki, uning bu xizmatlari ko'plab tarixiy manbalarda qayd qilib o'tilgan. Bular, Davlatshoh Samarqandiyining "Tazkirat ush-shuaro", Mirxonning "Ravzat us-safo", Xondamirning "Makorim ul-axloq" va boshqa shu kabi asarlardir. Darhaqiqat, Navoiyning qurilish sohasidagi ulkan faoliyati she'riyatida ham o'z aksini topgan. Go'zallik va joziba tarafdoi bo'lgan shoir qurilgan har bir imoratning ko'rki va sayqaliga yanada e'tibor berar edi. Bu esa shoirni me'morchilik san'atining ham yuqori bilimdoni ekanligini ko'rsatadi. Navoiy tabiatidagi ana shu xislat mazkur qit'ada o'z she'riy ifodasini topgan:

Har imoratkim tugandi garchi sho'xedur jamil,
 Bo'lsa koshinkorlig' aylar jamolin birga o'n.
 Bu yaqindurkim jamol ahli yalong'liqdin base,
 Yaxshiroqdur bo'lsa koshi naqshliq egnida to'n[5.514].

Qit'aning mazmuniga ko'ra, qurilgan yoki qurilajak imoratning go'zalligi shoirni qanoatlantirmagan. Navoiyning fikricha, chirolyi qilib solingen imorat "koshi korlig'" (g'ishtlarga har xil rang va bo'yoqchar berish) san'ati bilan bezalssa, uning bir jamoliga yana o'n jamol qo'shiladi. Imorat nozaninlarga o'xshab chirolyi va ko'rimli bo'ladi. Quyidagi qit'ada esa, o'sha qurilgan imoratlardan birining ichida tuzilgan "ikki manor" ta'riflangan:

Bizning imorat ichinda tuzolgan ikki manor
 Ki, qubbalardin erurlar sipehr sonida.
 Iki og'a-inidur tav'amon gumon qilg'il
 Ki, farq yo'q orada bo'lsalar namoyanda.
 Zamona zolini ko'rkim ne nav' bikr o'lg'ay
 Ki, mundoq, ikki o'g'il andin o'ldi zoypanda[6.325].

Bu ikki manorning muhtasham qubbalari osmon qadar yuksalgan. Shuning uchun ular "sipehr sonida" bo'lib, bamisolik ikki og'a-inidur. Ularni tav'amon-egizak

deyish ham mumkin. “Zamona zoli” bu (makkor kampir) zamonning o‘zi. Ajablanlisi shundaki, u qari yosumon ne nav yasharib, iffat topganu mundoq ikki o‘g‘il undan dunyoga kelgan. Bu o‘xshatish, shunchaki shoirona tashbeh emas, mana shu birgina baytning o‘zida shoirning davr va zamonga munosabati, o‘z davri haqidagi hayotiy mushohadasi namoyon bo‘ladi. Bizningcha, qari makkor kampir timsoli ifodalangan zamon, umuman, dunyo va xususan, Husayn Boyqaroden avvalgi Sulton Abu Sayd hukmronligi davri bo‘lib, bu zamona zolining iffat va poklik bilan yasharishi, yangilanishi esa Husayin Boyqaro hukmronligi davridir. Albatta, bu davr zamonasining yuksak “ikki manori”-ikki buyuk o‘g‘lonini dunyoga keltirib berdi. Bular, biri buyuk sarkarda Husayn Boyqaro, biri buyuk mutafakkir Alisher Navoiy. Baytdagi tav’amon-egizaklik tushunchasi ham balki shunga ishoradir. Shuning uchun ham nazm mulkini egallagan shoir jahon mulkini o‘z do‘stining farmonida (boshqaruvida) abadiy bo‘lishini istagandir:

To abad bo‘lsun jahon mulki aning farmonida,
Yuz jahoncha mulk bu mulkiga doxil har zamon.
Ey Navoiy, nazm mulki chun seningdur aylagil,
Shoh G‘oziy vasfi ichra tilni qoyil har zamon[6.515].

Haqiqatdan ham, Husayn boyqaro bilan Alisher Navoiy munosabatlari o‘zaro rasmiy munosabatlardan yuqori bo‘lib, davlatni boshqarishda o‘ziga xos do‘stonma ma’noga ega edi. Buni Boburning quyidagi so‘zлari ham tasdiqlaydi. Navoiy Sulton Husayn Mirzoning “...begi emas edi, balki musohibi edi...”[7.153]. Alisher Navoiy Husayn Boyqaro saroyida xizmat qilar ekan shoh va davlat manfaatidan boshqa hech narsani o‘ylamaslikni, pok ko‘nglida do‘stidan o‘zga “g‘ayrga” joy o‘rin bermaslikni, musaffo qalbida mehru-vafo, sadoqatdan bo‘lak xayol bo‘lmasligi lozimligini “Vaqfiya” asaridagi ushbu ruboiyda ifodalaydi:

Har kimki birov ishqiga bo‘lsa dilband.
Jon rishtasidin qilsa kerakdur payvand.
Gar g‘ayr xayoli tushsa ko‘ngliga pisand.
Qilmoq kerak ul ko‘ngulni yuz ming parkand[8.217].

Xulosa

Haqiqatan ham Alisher Navoiy o‘z ko‘ngliga tugib olgan bu maqsadini amalda isbot qiladi. Husayn Boyqaroning hokimiyatni mustahkamlash, mamlakatni obod qilish, Hirotni madaniy markazga aylantirish kabi murakkab ishlarida yaqindan turib xizmat qiladi.

Shoirning “Favoyid ul-kibar” devoniga kiritilgan quyidagi g‘azal matla’sining birinchi misrasini o‘qigan kitobxon ko‘z oldida azador kimsaning tashqi qiyofasi gavdalanadi. Uning ichki kechinmalari esa ikkinchi misradagi kishining izziroblari tasvirida bayon qilinadi. Navoiy badiyatining yuksakligi va ta’sirchanligi ikki lirik qahramonning ichki va tashqi holatlarini tasvirlashda tabiat hodisalaridan mohirlik bilan foydalanganligidadir.

Qora dastor to chirmadim mohim,
Boshimga chirmashib tur dudu ohim[6.367].

“Moh” so‘zining lug‘aviy ma’nosi oy, ya’ni jism. Mumtoz adabiyotda oy ko‘pincha ma’shuqaga nisbatan ishlatilgan. Mazkur baytda esa lirik qahramon uchun nihoyatda qadrli bo‘lgan yaqin kishisi nazarda tutilmoqda. Qora rangdagi sallaning qatlam-qatlam qilib o‘ralishi oyning atrofini qoplagan qop-qora tunga qiyos. Yaqin kishisining bunday ahvoliga achinayotgan ikkinchi lirik qahramon qalbidan chiqayotgan o‘tli oh xuddi tutab osmonga buralib-buralib ko‘tarilayotgan qora tutundir:

Yog‘ibtur nargis ichra jola yoxud

Ko‘zida ashk erur bor ishtibohim.

Achchiq-achchiq yosh to‘kayotgan ko‘zning horg‘inligi kuchli yomg‘ir ostida qolgan bo‘tako‘z guli barglarining bukchayib so‘lib qolgan holatiga monand. Negaki, ayriliq iztirobining ifodasi bo‘lgan lirik qahramon ko‘z yoshining do‘lday yog‘ilayotganiga hech qanday shubha yo‘q.

Anga hamrang o‘lay, deb motamimen

Qorarg‘on ro‘zg‘orim bor guvohim.

Hamranglik azador singari bir xil motam libosini kiyish. Bu tashqi ko‘rinishning uyg‘unligi zamirida ichki dard va alamning hamohangligi o‘z ifodasini topgan. Chunki judolik azobi boshiga tushgan kimsaning yonida turish, uning dardini bo‘lishish, g‘amiga sherik bo‘lish bu chin ma’nodagi iymonli insonlarga xos bo‘lgan odamiylik fazilatining bir ifodasidir:

Sirishkim xatlari sharhini so‘rdim

Dedi, xayli balog‘a shoxrohim.

Ko‘z yoshimning xat kabi izma-iz, tizilib-tizilib oqishining sababi ham ana shu hamdardilik tuyg‘usining ifodasidir, deydi shoir:

Manga xud bu azo bo‘ldi bahona

Mudom oqmoqqa ashki goh-gohim.

Ayriliq g‘ami tezda unitiladigan dard emas. Bu inson-yuragini pora-pora qiladigan, o‘rtab yondiradigan, kuydirib kul qiladigan og‘ir dard, alamdir. Bunday paytlarda har bir inson ichini kemirayotgan o‘tli fig‘onini yig‘lab-yig‘lab, achchiq ko‘z yoshlari bilan to‘kib soladi:

Dema bozi nujumi tiyradinkim,

Erur qalb uylakim, ro‘kash darohim.

Nujum - yulduzlar to‘dasi, tiyra - qorong‘ulik.

Ya‘ni, qop-qora osmon uzra yulduzlar. Tabiatning ushbu doimiylilik hodisasi baytda oniy lahzalik kechinma va kayfiyatning badiiy ifodasi sifatida xizmat qilmoqda. Qorong‘u osmon - g‘am-g‘ussaga burkangan qalb bo‘lsa, yulduzlar ko‘z yoshi. Bozi - tasavvufda hamma narsadan voz kechib o‘zini dard-u kulfat girdobiga solish demakdir:

Ko‘zumdur tiyra, ya‘ni, ey Navoiy,

Qora to‘n kiyidi motam ichra shohim.

Xullas, shoirning g‘azal maqta’sidagi o‘z-o‘ziga murojaatidan anglashilishicha, undagi lirik qahramon Husayn Boyqaro hamda Alisher Navoiy. Ikki do‘sning birday aza tutishiga sabab bo‘lgan voqeа esa nazarimizda, Husayn Boyqaroning nabirasi Mo‘min Mirzoning bevaqt vafoti bo‘lsa kerak.

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. МАТ. – Тошкент: “Фан”, 1990. Т.5. – 505-б.
2. Алишер Навоий. МАТ. – Тошкент: “Фан”, 1988. Т.4. – 524-б.
3. Алишер Навоий. МАТ.–Тошкент: “Фан”, 1988. Т.4. – 69-70-б.
4. Алишер Навоий. МАТ.–Тошкент: “Фан”, 1988. Т.4.–514-б.
5. Алишер Навоий. МАТ.–Тошкент: “Фан”, 1988. Т.4.–514-515-б.
6. Алишер Навоий. МАТ.–Тошкент: “Фан”, 1990. Т.5. – 325-б.
7. Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент: “Юлдузча”, 1989.–153-б.
8. Алишер Навоий. МАТ. – Тошкент: “Фан”, 1990. Т.14.– 217-б.
9. Абдугафуров А. Эрк ва эзгулик куйчилари. Илмий танқидий мақолалар. – Тошкент: “Адабиёт ва санъат”, 1979.–79-б.